



TARJIMADA SHOIR MAHORATI

Axmedova Shoxista

Jizzax davlat pedagogika universiteti, PhD

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Omon Matjonning “Soldat o‘ylari” turkumiga kirgan “Nogoh...” she’ri bir jangchining o‘limi va onaning o‘g‘liga yo‘llagan xati haqida obrazli yozilganligi tahlil qilingan. Mazkur she’r “Ochiq derazalar” to‘plamiga sarlavhasiz kiritilgan. She’r matnining “Sharq yulduzi”da nashr etilgan shakli va kitob variantini solishtirganda shoirning bir she’r ustidagi qayta ishlovlari, tahrir san’ati, yetuk badiiy tafakkuri ochiqlangan.*

Kalit so‘zlar: *tarjima, she’riy tarjima, mahorat, ijodiy ohang.*


Omon Matjon she’rlari Y.Yevtushenko, M.Sinelnikova, R.Farhodiy, Y.Reyn, A.Tyurin, Y.Otreshko kabi tarjimonlar tomonidan rus tiliga o‘g‘irilgan. Binobarin, shoirning Toshkentda “Зов феникса” (“Haqqush qichqirig‘i”) nomi bilan chop etilgan bo‘lsa, Moskvada 1988-yilda “Знак любви” (“Sevgi ramzi”) sarlavhasi bilan bosmadan chiqqan.

Shuningdek, shoirning “Soldat o‘ylari” turkumiga kirgan “Nogoh...” she’ri bir jangchining o‘limi va onaning o‘g‘liga yo‘llagan xati haqida obrazli yozilgan. Mazkur she’r “Ochiq derazalar” to‘plamiga sarlavhasiz kiritilgan. She’r matnining “Sharq yulduzi”da nashr etilgan shakli va kitob variantini solishtirganda shoirning bir she’r ustidagi qayta ishlovlari, tahrir san’ati, yetuk badiiy tafakkuri namoyon bo‘ladi.

Jurnal variant:

Nogoh...

Qayin kabi quladi jangchi,
Ko‘kragidan sizib qaynoq qon.
Quladi-yu, og‘ir boshini
Iliq tuproq quchdi mehribon.
Dafn etishdi uni avaylab
Vatanidan olis bir yerga.
Kissasida qonli maktub ham
O‘qilmayin ko‘mildi birga.
Onasidan javob edi u
Mard o‘g‘lining yozgan xatiga.
Ona hamon javob ololmay,
Xat yo‘llaydi uning otiga[2;43].



“Ochiq derazalar” she’riy to‘plamidagi variant:

Qayin kabi quladi jangchi,
Ko‘kragidan sizib qaynoq qon.
Quladi-yu, og‘ir boshini
Iliq tuproq quchdi mehribon.
Dafn etishdi uni avaylab
Vatanidan olis bir yerga.
Uning bilan ona xati ham
O‘qilmayin ko‘mildi yerga.
Yillar o‘tdi.
Kimdir hoynahoy
Ul damlarni olmas yodiga.
Ona esa hamon paydar-pay
Xat yo‘llaydi otiga[1;45].

Ushbu she’r matni tekstologik tahlil etilganda so‘zlar tushishi, misralar qo‘shilishi kuzatiladi. Xususan, jurnalda she’r sarlavhasi “Nogoh...” nomi bilan nashr etilib she’r uch bandga ajratilgan, to‘plamda esa she’r sarlavhasiz, bandlarga bo‘linmagan holatda qayta ishlangan. Bundan tashqari, jurnal variantida she’rning oxirgi bir bandi to‘liq olib tashlanib, “Ochiq derazalar” to‘plamida jiddiy tuzatishlar qilingan va yangi misralarni qo‘shgan. Ya’ni “Yillar o‘tdi, Kimdir hoynahoy, Ul damlarni olmas yodiga, Ona esa hamon paydar-pay, Xat yo‘llaydi otiga” kabi misralar shoir tomonidan qo‘shilib, she’rning badiiy-g‘oyaviy va obrazli xususiyati oshirilgan. Shuningdek, O.Matjon Vatanimiz tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, folklorini, o‘zga xalqlar tarixini chuqur biladigan, katta bilim va tafakkur egasi edi. Bu qirralar uning badiiyatida yorqin ko‘rinadi. Yana shoir she’rlaridagi ruh shundan iboratki, u ko‘p dunyo ko‘rgan, ko‘p insonlar bilan tanishgan, ularning hayoti, dard-u iztirobini chuqur his etgan ijodkor sifatida ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. Adabiyotshunos Umarali Normatov uni: “Omon – jahongashta shoir”, – deb ta’riflagan edi.

Omon Matjonning shaxsiy arxivida saqlanib qolgan xatlarning ko‘pchiligi kirill yozuvida, bir nechta xatlar esa eski o‘zbek yozuvda yozilgan. Ba’zi xatlar rus, qoraqolpoq tilida bitilgan. Xatlar papkasida qoraqalpoq shoiri Jo‘lmirza Aymirzayev tomonidan 1986-yil 14-iyulida Omon Matjon manziliga yozilgan maktub e’tiborimizni tortdi. U XX asr qoraqalpoq adabiyotining yirik siymalaridan biridir. Jo‘lmirza Aymirzayev qoraqalpoq adabiyoti maydoniga o‘tgan asr 20-yillarining oxirida kirib keldi. U she’riy, nasriy, dramatik, badiiy publitsistik asarlar yozdi. Muallifning “Oygulobod”, “Amu qirg‘oqlarida”, “Berdaq” pyesalari hamda “Qamiqboy ishi” nomli bir romani mashhurdir. Xat mazmunini to‘lig‘icha beramiz:

“Қадирдан уғлим Аман Матжан!

Ассалаўма алейкум!

Жасына қарасам баламдайсан.

Ақылына қарасам данамдайсан!

Мен жасларды солайиш бақалайман, солайша жанымдай жақсы коремен. “Жаслық” журналыңызга көптун берли ҳауасым болсада ҳархыйлық себеплер менен қатнаса алмадым. Бундан былай мумкуншилиги болса қатнасып турсам деген умиттемен.

Дурыс жасым анша, муншаға барыш қалды. Ҳэзир 76 жастаман. Жазушы болғаным 59 жыл болады. Жасым қарры болсада жазғанларым жаслар өмиринен, хэзирги заманагойлер-заманласлар, жайнаған жалынлы жаслар турмыснан. Мениң өмирим жаслар менен өтип атыр. Сол ушын Сизге бир қанша қосықларымды жиберип отырман. Агарким макул туссе журналыңызға жиберсениз тағыда жасарып кетиўту себеп болар еди.

Бауырым Аман! Аман есен саў саламат болғайсан! Узақ умир, уллы ден саўлық, таўдай табыслар тилеп қаламан!

Аталық салам билан (Жолмирза Аймурзаев)

Адрес: Нукус-742000. Улица Орджоникидзе дом 11. Телефон 2-32-10

Аймурзаев Жолмурза Мурзаевич. 14.07.86[3;56]

Mazkur xat A4 qog'ozga mashinkada terilgan. Ruchka bilan tuzatishlar qilingan. Xat bilan birga Jo'lmirza Aymurzayevning “Жаңабайдын жан улы”, “Зергер!”, “Шешер”, “Халқың менен бол!”, “Қабыл болмаса”, “Сағыныў”, “Шигитбен”, “Хурайым”, “Саў болсын басың!”, “Ғаррыы демен жанларым!” kabi she'rlari “Yoshlik” jurnaliga jo'natilgan. Chunki o'sha payt Omon Matjon “Yoshlik” jurnalining bosh muharriri bo'lgan. Xatda yozilganidek, J.Aymirzayev 1986-yilda 76 yoshida Omon Matjonga maktub yo'llar ekan, unga “Бауырым”, “балам” deb murojaat etadi. Keksayib qolgan shoir yosh Omon Matjonning iste'dodiga qoyil qolib, unga o'zining o'nga yaqin she'rlarini xat bilan birga jo'natgan. Bu ayni paytda O.Matjon fenomenining nafaqat o'zbek adabiy jarayonida, balki turkiy xalqlar adabiyotida ham tanilganligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahimjonov N. Tarix tilsimlari va badiiy yechimlar. Shoir Omon Matjon bilan suhbat / Rahimjonov N. Badiiyat bosh mezon. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – B.149-150.

2. Yozuvchi Erkin A'zam bilan yuzma-yuz ijodiy uchrashuvda aytilgan fikr. Suhbatdoshlar: E.A'zam, M.Qo'chqorova, Sh.Axmedova. 2022 yil. 1-fevral.

3. Ғулом Ҳ. Парвози баланд шеърят / Матжон О. Ёнаётган дарахт. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – Б. 3-4.
4. Исмоилов А. “Уйғон, эй, дил, дил вақтинг бўлди” / Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2023. 10 февраль. № 5.
5. Каримов Б. “Энди ул ой ҳажри ҳам аввалгиларға ўхшамас” / Янги Ўзбекистон, 2023. 15 февраль. № 31.
6. Каримов Н. Омоншунос олима ва унинг янги асари ҳақида / Жумабоева Ж. Ҳақиқат айтилган дамлар. – Тошкент: Istiqlol, 2022. – Б. 6.
7. Норматов У. “Ёниб, ўзгаларни уйғотмоқ не бахт!” (сўнгсўз) / Матжон О. Иймон ёғдуси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995.
8. Koçkarova M. Aman Matcan’ın ömür geçir vakit geçir kitabı hakkında düşünceler // Güncel sanat. – Türkiye. 2016. Sayı: 44. Eylül-ekim. – S. 72-73.